

Bugun O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil 18-noyabr

N:46 (66951)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

BILIMLI MINGNI YENGAR



Yaqinda yurtimizdagi barcha umumta'lim maktablari bitiruvchilari o'rtasida fan olimpiadalarining maktab bosqichi bo'lib o'tdi. Bunday bellashuvlar o'quvchilar orasida sog'lom raqobatni yuzaga keltirish, yosh avlodni mustaqil fikrlashga, o'z ustida ishlashga undashi, shubhasiz. Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 63-umumta'lim maktabida ham bilimlar sinovi uyushqoqlik bilan o'tkazildi.

(Davomi 2-betda)

**QUVONCHIM,
SUYANCHIM,
O'ZBEKISTONIM!**

4-bet

**«G'UNCHA»
JURNALI MEHMONIMIZ**

5-bet

**11 YOSHLI
BILIMDON**

8-bet

**MAKTABDA
TIBBIY KO'RIK**



3-bet

JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT

Bugun biz tezkor axborot asrida yashayapmiz. Hozirda butun dunyoni o'rgimchak to'ridek qamrab olgan internet tizimi orqali har bir odam, istalgan ma'lumotni yer yuzining turli nuqtasidan qabul qilish yoki uzatish imkoniyatiga ega. Agar sizni qiziqtirgan mavzu yuzasidan ushbu tarmoqqa qidiruv bersangiz bas, qisqa vaqt ichida izlagan axborotingiz qo'lingizda bo'ladi.

Afsuski, barcha ham internetning qulay imkoniyatlaridan oqilona foydalanaypti, deb ayta olmaymiz.



Ayrim yoshlarimiz bu global tarmoq orqali yovuz niyatli insonlar tuzog'iga tushib qolayotgani achinarlidir. Shuning uchun ham bunday aynachli holatlarning oldini olish, farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosiy maqsadimizdir.

Kuni kecha maktabimizda o'tkazilgan «Jaholatga qarshi ma'rifat» nomli badiiy va ijodiy ishlar tanlovi ana shu ezu niyatda tashkil etildi.

Tadbirida maktabimizning 5-9-sinf o'quvchilari adabiyot va tasviriy san'at yo'nalishlari bo'yicha ishtirok etishdi.

Tadbirida qatnashgan barcha o'quvchilarning ijodiy ishlari hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi. G'oliblar «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. Mazkur tanlov uch bosqichda o'tkazilib, o'quvchilar maktab, tuman va shahar bosqichlarida bellashishadi.

Zohida O'RINBOYEVA,
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabining ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

8-DEKABR – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasi.



IFTIXOR RAMZI

Bugun yurtimiz hayotida juda muhim kun. Bundan 22 yil muqaddam O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida milliy ramzlarimizdan biri Davlat bayrog'i tasdiqlangan edi.

O'zbekistonimiz bayrog'i Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosi oldida mag'rur hilpiraganda, yurtdoshlarimizning nufuzli xalqaro musobaqalarda erishgan muvaffaqiyatlari sharafiga ko'klarga ko'tarilganda, qalbimiz faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ladi.

Aziz o'quvchilar, siz yurt kelajagisiz. Shunday ekan, bilim cho'qqilarini egallashga intiling, sportning biror turi bilan muntazam shug'ullaning. Shoyad, Sizning yutug'ingiz sharafiga ham xalqaro maydonlarda bayrog'imiz hilpirasa!

D. HOTAMOVA

IJODIY UCHRASHUV

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida shoira Zulfiya Mo'minova bilan ijodiy uchrashuv o'tkazildi. Kechada ustozlar, o'quvchilar, she'riyatga ixlosmand yoshlar ishtirok etishdi.

Iste'dodli o'quvchilar tomonidan namoyish etilgan sahna ko'rinishlari, Alisher Navoiy, Uvaysiy, Nodirabegim, Zebuniso kabi buyuk she'riyat namoyandalari ijodidan o'qilgan g'azal va ruboiylar tadbirga yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, maktabda tashkil etilgan «Yosh jurnalist», «Zulfiyaxonim qizlari» to'garaklarining qatnashchilari ham o'z iqtidorlarini namoyish etishdi.

Kamola SAMIG'JONOVA,
shu maktab o'qituvchisi

BILIMLI MINGNI YENGAR

(Davomi. Boshi 1-betda)

– Iqtidorli qizimiz – 9-«A» sinf o'quvchisi Shoista Yo'ldosheva

turgan olam fizik hodisalar bilan bog'liq, – deydi 9-«A» sinf o'quvchisi Dilsora Qo'chqorova. – Mazkur fandan olimpiadaning tuman bosqichiga chiqqanimdan xursandman.

– Biologiya fani meni

muvaffaqiyatli qatnashib, ustozlarim ishonchini oqlash niyatidaman...

O'z bilimi va salohiyatini sinovlarda toblab borayotgan o'quvchilarga fan olimpiadalarining tuman bosqichida ham muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Zero, «Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yengar», deydi.

Ozoda TURSUNBOYEVA,
muallif olgan suratlar



– Fan olimpiadalari uch tur, ya'ni yozma ish, test va amaliy topshiriqlar bo'yicha o'tkazildi. Ona tili va adabiyot fanidan 9-«V» sinf o'quvchisi Amir Hazratqulov «Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi» mavzusida yozgan inshosi uchun yuqori ballni qo'lga kiritdi va tuman bosqichiga yo'llanma oldi. Shu kunlarda shogirdim bilan bellashuvning tuman bosqichiga puxta tayyorgarlik ko'rmoqdamiz, – deydi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilshoda Akbarova.

kimyo fanidan yaxshi natijalarni qo'lga kiritdi. U mana bir necha yildirki, maktabimiz qoshidagi kimyo to'garigiga qatnashib, bilimlarini boyitib kelmoqda. Quvonarlisi, u kelgusida shu fan o'qituvchisi bo'lmoqchi, – deydi ustози Hilola Hakimova.

– Men fizika faniga juda qiziqaman. Chunki hayotimiz, atrofimizni o'rab

o'ziga r o m etgan, – deydi shu sinf o'quvchisi Iroda To'ychiyoyeva. – Dilrabo opa Rashidovadan hayvonot va o'simliklar olamining mo'jizaviy sirlarini o'rganamiz. Men tuman bosqichida ham

BUYUK SHOIRNI YOD ETDIK

Men har safar
G'afur G'ulom
ijodi va
faoliyati
haqidagi
darsga
o'zgacha
ishtiyoq bilan
tayyorgarlik
ko'raman.



Negaki, bu buyuk ijodkorning o'zbek adabiyoti uchun qoldirgan merosi, yaratgan asarlari bizni chuqur mushohada yuritishga, mehr-oqibat, do'stlik, saxiylik kabi chin insoniy tuyg'ularni qadrlab yashashga undaydi. Ijodkorning birgina «Shum bola» asarini olaylik. Ushbu asarni nafaqat o'zbek kitobxoni, balki dunyoning juda ko'p mamlakatlaridagi adabiyotga ixlosmand insonlar ayni paytda ham katta qiziqish bilan mutolaa qilishmoqda.

G'afur G'ulomning she'rlari, qissalarini o'qigan o'quvchilarim adib yashagan davrni teranroq tasavvur qilishlari uchun ularni ijodkorning uy-muzeyiga olib bordim. Muzeida o'quvchilarim o'sha davrdagi yurtimiz manzaralari, maktablarning qanday sharoitda bo'lganligini ko'rib, o'zlari uchun xulosalar chiqarishdi. Bugungi mustaqil yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan ezgu ishlar, yosh avlodning bilimli, zukko, bir so'z bilan aytganda, barkamol bo'lib kamolga yetishlari yo'lida olib borilayotgan islohotlar bilan bevosita taqqoslash imkoniga ega bo'lishdi.

O'quvchilarim muzeydan bir olam taassurotlar bilan qaytishdi.

Nasiba ABDULLAYEVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi
268-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ustozi haqida yozishni kim ham istamaydi,
deysiz? Ayniqsa, mening muallimam
Baxtijon opa Xolmatova kabi yuksak
mukofotlarga sazovor bo'lib, maktab faxriga
aylansa, bunday o'qituvchingiz bilan
g'ururlanib ketar ekansiz.

USTOZIMIZ — FAXRIMIZ

Bizga algebra va geometriya fanidan saboq berayotgan ustozimiz Baxtijon opaning 2007-yilda «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni va 2012-yilda «Shuhrat» medali bilan taqdirlanishlari ularning mehnatkashliklari, darsni doimo yangi va qiziqarli usullar bilan o'tishlarining mukofoti, deb bilaman.

Kechagidek yodimda, Yurtboshimizning qo'llaridan mukofotni olib qaytgan ustozimni quchoq-quchoq gullar bilan qarshi olgan edik. Shunday insonga munosib shogird bo'lish uchun biz ham fan olimpiadalarida faxrli o'rinni egallab, kelajakda komil inson bo'lishga harakat qilmoqdamiz.



Aziza SHOKIROVA,
Jizzax viloyati, Jizzax shahridagi 11-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi

IJODKOR O'QUVCHILAR KO'P



Maktabimizda iste'dodli, iqtidorli o'quvchilar ko'p. Ularning aksariyati «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishgan. O'z maqola va xabarlarini bilan gazetaning mazmun-mundarijasini boyitishga hissa qo'shib kelishyapti. Men ham bo'sh vaqtlarimda she'r yozishni mashq qilib turaman. Ayniqsa, kuzning xazonrezgi vaqti ijodkorlarga ilhom bag'ishlaydi, desam adashmayman. Men ona, Vatan, tabiat mavzularida she'r yozishni yoqtiraman. O'z ustimda ko'proq ishlab, she'rlarimdan ko'nglim to'lsa, ularni, albatta, tengdoshlarimga ilinaman.

Mohinur NORMETOVA,
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi 46-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan
foydalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasi.

MAKTABDA TIBBIY KO'RRIK

Aziz o'quvchilar, sog'lom bo'lib ulg'ayish eng avvalo,
o'zingizga bog'liq ekanini, shuningdek, Sizing salomatligingiz
to'g'risida ota-onangiz, ustozingiz-u, oila shifokorlari ham
qayg'urishlarini yaxshi bilasiz-a?!

Shu kunlarda yurtimizdagi barcha umumta'lim maktablarida tashkil-lashtirilayotgan tibbiy ko'riklar ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi. Zero, jismonan sog'lom o'quvchigina aqliy va ma'naviy jihatdan barkamol bo'lib ulg'ayadi. Xo'sh, siz bu tibbiy ko'rikda qanday ishtirok etmoqdasiz?

— Har yili maktabimizda tibbiy ko'rik tashkillashtiriladi. Bunda biz turli mutaxassis shifokorlar ko'rigidan o'tamiz. Kechagina sinf

rahbarimiz Dilorom opa Usmonova boshchiligidagi tumanimizdagi 46-oilaviy poliklinikada tahliliy tekshiruvlardan o'tdik. Barcha shifokorlar tomonidan menga, sog'lom, degan tashxis qo'yilganidan xursandman. Kelajakda yaxshi-mutaxassis va yurtimizga munosib o'g'lon bo'lib yetishishim uchun avvalo, jismonan baquvvat, aqlan yetuk bo'lishim zarur,

— deydi Shayxontohur tumanidagi 254-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Ibrohim Inog'omov.

«Bu masalaga
b a r c h a
o'quvchilar



ham Ibrohimdek jiddiy yondashishmoqdami yoki «Shu ko'rikning nima keragi bor?» deyidiganlar ham topiladimi?», degan savol bilan maktab hamshirasi Barno opa Mo'minovaga yuzlandik:

— Ayni kunlarda tor mutaxassislar ko'rigidan o'tayotgan 7-9-sinf o'quvchilarining faolligini va ota-onalarning mamnunligini ko'rib, maktabimiz rahbari Baxtiniso opa Po'latova tashkiliy ishlarga yanada jiddiy e'tibor qaratmoqdalar. Shu kungacha yuqori sinf qizlarining barchasi ultratovush, o'g'il bolalar EKG hamda rentgenologik tekshiruvlardan o'tishdi.

Bepul ta'lim olish va davolanish imkoniyatlaridan unumli foydalanish, har qadamda davlatimiz g'amxo'rligini his etib yashash naqadar ulug' baxt-a?!

O'z huquq va burchingizni to'g'ri anglab, maqsad sari olg'a intilsangiz, marra sizniki, aziz o'quvchim!


Sayyora QODIROVA.
Z.NISHONOVA olgan surat

«Vatan haqida so'z» sahifasining bugungi mehmonlari Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 28-maktab o'quvchilari - Dilaferuz ZARIPOVA hamda Malika JAMOLOVA bo'ladi.

QUYONCHIM, SUYANCHIM, O'ZBEKISTONIM!

Ikki dugona a'lo baholarga o'qish bilan birga, adabiyotga, she'riyatga qiziqishadi. Ular maktab, tuman miqyosida o'tadigan deyarli barcha tanlovlarda ishtirok etishga harakat qilishadi. G'olib bo'lishmasa ham ko'ngillari cho'kmaydi. Chunki bunday tanlovlardagi ishtirokning o'zi g'oliblik ekanini qizlar juda yaxshi bilishadi.

Dilaferuz Vatan haqida so'z aytar ekan, «Tuproq'i zar, osmoni tinch yurtimga aslo ko'z tegmasin, chunki Vatan mening quvonchim,



Dilaferuz

suyanchim», deydi. Vatan haqida yozgan she'rini qalbi mehrga to'lib o'qib berdi. *Jonajon diyorum, O'zbekistonim! Nomingni tillarda doston aylaylik. Bag'ringda ulg'ayib, kamolga yetib, Ertu xizmatingga o'zni shaylaylik! Vatan, ayro tushmay hur quchog'ingdan, Umrbod shu aziz bag'ringda yashay. Bir zukko va zakkiy farzanding bo'lib, Ravnaqing yo'lida borimni to'shay.* Dugonasining she'ridan ilhomlangan Malika ham bo'sh kelmay: *Jahon uzra nom taratgan ko'hna diyor, Ibn Sino, Buxoriydek farzandlari bor* – deya she'r o'qidi.

Ko'hna va qadim Buxoro azal-azaldan ilm-fan, madaniyat o'chog'i bo'lib kelganligini, chindan ham bu diyorga butun dunyo ziyolilari intilganini



Malika

ta'kidlab, «Mening onajon shahrim, qadim Buxorom», deya e'zozladi.

Biz esa bu zukko qizlarimizga qarata shunday degimiz keladi:

– Bunday ulug' bobokalonlarimizga munosib bo'lish uchun o'qib-o'rganish, tinmay izlanish dardkor.

F. SOYIBJON qizi



haqida o'y surishayotgan ekan?..

Iye, hissiyotlarga berilib ketibman-ku!

TASVIRIY SAN'ATNING SIRLI OLAMI

Tasviriy san'at – sirli bir olam, deganlari shu bo'lsa kerak-da, kishini beixtiyor sehrlab qo'yarkan.

Rasm chizayotgan qizlar salom berib, sergak torttirishmaganida, bilmadim, yana qancha turardim jonsiz

Davlat mukofoti sohibasi bo'lgan Nigora opam uyg'otgan bo'lsa, ajabmas. Bu qiziqish yoshim ulg'aygani sari aniq maqsadga aylana bordi va Respublika rassomlik kolleji sari yetakladi. Avvaliga ancha qiyin bo'ldi. Lekin ota-onam daldasi, opajonim maslahatlari va ustozlari m o'g'itlari tufayli saboq

o r z u Iqtidorli tengdoshim qilaman.

– Men esa Zahroman, – deya mayin jilmayib so'z boshladi uning dugonasi. – Zamira bilan bir guruhda dastgohli rangtasvir yo'nalishi bo'yicha tahsil olaymiz. Tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishimni sezgan onam poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 317-maktabda tahsil olib yurgan chog'larimdayoq tasviriy san'at to'garagiga yetaklab borganidilar.

To'garak rahbarimiz Sadridin aka esa

birinchi kuniyoq bizni ko'rgazmaga, keyin esa Kamoliddin Behzod nomidagi institutga olib borganlar. Institutda o'quvchilarning ijodiy ishlaridan ko'rgazma tashkil

qilingan ekan. Ularning ishlariga havas qilib, men ham rassom bo'laman, deya niyat qildim. Hozirda ustozim Armen Rubenovichdan rassomlikning nozik sir-sinoatlarini o'rganyapman. Kelajakdagi orzuim chet ellarda o'z ko'rgazmamni tashkil qilish. Buning uchun hozirdanoq puxta bilim olib, ingliz va koreys tillarini o'rganyapman. Chet elliklarga o'z ijodim haqida o'zim gapirib berishni niyat qilaman...

Yoshlikdanoq o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, unga erishish yo'lida tinmay izlanayotgan iqtidorli qizlarimizning fikrlarini tinglab, orzu-niyatlariga oshno tutinib, beixtiyor qalbimizda bir istak uyg'ondi: yurtimizda iqtidorli o'g'il-qizlar ko'payversin.

Feruza JALILOVA

Betakror kuz bor go'zalligini, ko'rk-u tarovatini ko'z-ko'z qilayotgan, daraxtlarning turfa rangdagi barglari quyoshning zarrin nurlarida jilvalanib, qalblarda allanechuk iliq tuyg'ularni junbushga keltirayotgan kunlarning birida ajib manzaraga duch keldim: poytaxtimizdagi so'lim bog'lardan biriga dastgohlarini joylashtirib olgan ikki dugona tabiatning go'zal manzaralarini qog'ozda aks ettirishga urinishardi. Ular bu mashg'ulotga shu darajada berilib ketishgandiki, hatto yonlariga borganimni ham sezmay qolishdi. Bir muddat ishlarini kuzatdim. Yuzaki qaraganda, qog'ozda ham yana o'sha tanish manzara. Lekin sinchiklab boqsam, mening ko'zim ilg'amagan jihatlar ham talaygina ekan. Huv, ana, xazon barglarga oshyon bo'lgan soyga termilgan qancha bir yigitcha o'ychan o'tiribdi. Qiziq, u qanday xayollar bilan band ekan-a? Suvdagi aksiga boqib, chiroyiga mahliyo bo'lib turgandek aks ettirilgan daraxtlar-chi, nimalar



tabiatning qog'ozdagi jonlidek aksiga mahliyo bo'lib.

O'zlarini Respublika rassomlik kolleji o'quvchisi deya tanishtirgan ikki dugona bilan yaqinroq tanishgim keldi.

– Mening ismim Zamira, – deya o'zini tanishtirdi qizlardan biri. – Poytaxtimizdagi 274-maktabda tahsil olganman. Mendagi tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishni Zulfiya nomidagi

olishga astoydil kirishib ketdim. Hozirda o'rgan-ganlarimni uka va singillarimga ham o'rgatyapman.



Taniqli musavvirlar – Ortiqali Qozoqov, Akmal Nur kabi tabiat manzaralarini aks ettirishni yoqtiraman. Biz yoshlarga yaratilayotgan ulkan imkoniyatlardan unumli foydalanib, puxta bilim olishga, kelajakda mohir musavvir bo'lib, yurtimiz manzaralari aks etgan rasmlarim chet ellardagi ko'rgazmalarda ham namoyish etilishini

Bolajonlar, sevimli jurnalangiz «G'uncha»ga obuna bo'lishni unutmadigizmi? U niyil davomida, oila davrasida o'qing! Bizning indeks: 808. Jurnalimizni www.guncha.uz elektron sayti orqali ham kuzatib borishingiz mumkin.

«OBUNA - 2014»

Bolalar, hoy, bolalar,
Eshitmadi, demanglar.
Kichikintoy, bilag'onlar,
Keyin attang, qilmanglar.
Bizning quvnoq «G'uncha»xon,
Sizga hamroh, qadrdon.
Sahifasi rang-barang,
O'zingiz ham bir qarang.

Hikoya va ertaklar,
Tarbiyaga yetaklar.
«She'rli sandiq» — to'la she'r,
Bizlarni yod oling, der.

Bo'lsangiz agar topqir,
«Bo'sh o'tirma, bosh qotir!»
Rukniga qarab boqing!

Topishmoqlarni toping.
Bir sahifa tez aytish,
Tez aytish-u soz aytish.

Nutqingiz qilar ravon,
O'qing, bo'ling bilag'on!

«Mohir rassom» bo'lsangiz,
Yoki she'r mashq qilsangiz,

«Quvnoq qalamlar» rukni
Kutar sizdan maktubni.

«Tong yulduzi»da mehmon —
Bugun jajji «G'uncha»xon.

Dilfuza KAMOLJONOVA

IBORALI SHE'RLAR

Dars qilmasa Miraziz,
«Ikki», «uch»lari ortar.
«Og'zing qani?» desangiz,
«Qulog'ini ko'rsatar».

Kechikish yomon odat,
Sardor darsga ulgurd.
«Oyog'in qo'lga olib»,
Maktabiga yugurdi.

Chaqqanda ko'kda chaqmoq,
Ra'no birdan cho'chib ketdi.
Qo'rqanidan qizaloqning,
«Kapalagi uchib ketdi»...

Bolajonlar, ushbu to'rtliklarda
nechta ibora bor? Siz qanday
iboralarni bilasiz?



Anvar OBIDJON,
O'zbekiston xalq shoiri

DO'MBOQCHALAR DUNYOSI

Yozdim kichikintoylarga
She'r, hikoya, qissalar.
Yurt baxtidir farzandlar —
Oqil bo'lib o'ssalar.

Odatlari ajoyib,
Zap qiziqdir so'zlari.
Aslida eng zo'r kitob —
Bolalarning o'zlari.



PORTRET

O'zimizning Toshkent shahrida Dedivoy degan bir bola bo'lgan ekan. U bo'yi o'sishini xohlarkan-u, ovqat yeyishni sira istamas ekan-da. Bo'ying baland bo'lishi yaxshi-da axir, nimani xohlasang, shunga yetadi.

Bir kuni sersavol

Dedivoy partadoshi
Dedixonga debdi:

— Men bo'yim juda ham
baland bo'lishini istayman, kamida terakdek
bo'lsam, deymen.

Shunday debdi-yu, borib o'zi qo'ygan belgiga
bo'yini baravarlashtirib o'lchab ko'ribdi. Bu kun
davomida Dedivoyning chamasi olti yoki yettinchi
marta bo'yini o'lchab ko'rishi edi.

— Bo'yim yana ikki soatdan

keyin nechta santimetr o'sarkin-a?

— Bo'yning o'sishini har soatda
o'lchab, aniqlab bo'lmaydi, — debdi
Dedixon.

— Bo'lmasa nima qilishim kerak? —
so'rabdi Dedivoy.

— Bo'ying o'sishi uchun ko'p
ovqat yeyish kerak bo'ladi, —
maslahat beribdi Dedixon.

— Bilasanmi, men har kuni juda
ko'p shokolad, muzqaymoq,
buterbrot yeyman. Shunda ham
bo'yim o'smayapti-ku.

— Oyimning aytishicha, darmondorilarga boy,
salomatligimiz uchun foydali bo'lgan oziq-
ovqatlarni yesak bo'yimiz o'sar ekan, — debdi

Dedixon. — Masalan, men har kuni

mevalardan — olma, uzum, banan, sabzavotlardan esa
sabzi va karamni ko'p iste'mol qilaman.

— Nega endi aynan sabzi va
karam? Mana quyon,
qancha ko'p sabzi-yu
karam yeydi, bo'yini

qara, pak-pakana... —
e'tiroz bildirdi Dedivoy.

— Quyoning bo'yi
past bo'lsa-da, hamma kuchi oyog'ida. Qara,
tez yugurishda hech bir jonivor unga
tenglasholmaydi.

Dedivoy boshini qashlab, o'ylanib qoldi.

— Sen haqsan, Dedixon, — debdi Dedivoy.

— «Senimi, shoshmay tur!»

multiserialidagi Quyon sabzi-yu
karamning kuchi bilan Bo'rivoyini
yuz yildan buyon dog'da qoldirib

kelyapti-ku! Demak men ham
darmondoriga boy mahsulotlarni
yemay turib, bo'yim o'sishini

orzu qilishim to'g'ri emas.

— Balli, do'stim! Biz
ota-onamiz tayyorlagan
oziq-ovqatlar bilan to'g'ri

ovqatlansak, bo'yimiz ham,
aqlimiz ham tez o'sadi! — dedi

Dedixon mamnun bo'lib.

Ayting-chi, bolajonlar, Siz har kuni oyingiz
tayinlaganday ovqatlanasizmi? Ovqat mahali
«ovqat yemayman», deya xarxasha qilmaysizmi?

Shular haqida bizga, albatta, yozib yuboring.

Go'zal BEGIM

Pyotr SINYAVSKIY

O'yjonim rasmini
O'xshatib chizgim keldi.
Rosa kirishgan chog'im,
Qalamlarim pand berdi.

Oq, qora, yashil ranglar,
Hatto sindi qizil ham.
Lek rasmni o'xshatdim,
Chunki u — mening onam.

Rus tilidan Zahro HASANOVA tarjimai

TEZ AYTISHNI AYTAMIZ!



Mushuk miyovlab
mo'ridan mo'raladi.

Tol tagidan tosh topdim,
Toshni tog'tomon otdim.

Tog'dan tog'olcha terib,
tog'orachamni to'ldirdim.



Shahnoza KARIMOVA



O'ZBEKISTON

O'zbekiston – Vatanim,
Iftixor, g'ururimsan.
Sen borlig'im, chamanim,
Qalbdagi sururimsan.

Tog'dan oqqan suvingdan
To'yib-to'yib ichaman.
Rango rang gullaringdan
Bahra olib, quchaman.

Mehmondo'st, kichik ko'ngil
Tanti xalqing bor bo'lsin.
Tinchlik, osoyishtalik,
Mudom senga yor bo'lsin!

Gulnoza NOMOZOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shah-
ridagi 7-umumta'lim maktabining
4-sinf o'quvchisi



BOLALIK

O'tib borar kunlar va oylar,
Vafo qilmas hatto yillar ham.
Eng beg'ubor, sof xotiralar,
Bolalikni eslatar har dam.

Yugurardik, yelday uchardik,
Osmonlarga bo'ylab yetardik,
Bahslashardik, quvonchdan go'yo,
Dunyolarga sig'may ketardik.

O'tsa hamki oradan yillar,
Zavq ulashar bizga bolalik.
U baxsh etgan beg'uborlikni,
Bir umrga saqlab qolaylik!

Zarnigor ABDUSAMATOVA,
O'zDJTU qoshidagi akademik litsey-
ning 105-guruh o'quvchisi

YURT O'G'LONI

Bolaligim o'tib bormoqda,
Qishlog'imning quchoqlarida.
Orzularim olov yoqmoqda,
Yuragimning o'choqlarida.

Oq qog'ozga chizaman surat,
Goho ustoz, goho onamni.
Nimagadir tasvirlab bo'lmas,
Butunicha ulkan Vatanni.


Yuguraman Quyosh bilan teng,
Qo'lim cho'zsam quchgum samoni.
Kuchli bo'lay, o'rganay bilim,
Axir biz-ku yurtning o'g'loni.

Nazirjon
TOSHTEMIROV,
Farg'ona viloyati,
Beshariq tumanidagi
4-umumta'lim
maktabining
4-«A» sinf
o'quvchisi



MAHORAT SABOQLARI

Ijod ahli borki, doimo ustoz adiblardan
ibrat oladi. Ularning asarlaridagi
quyma satrlardan ilhom olsak, umrbog'iy
qahramonlar, go'yo yaqin
qadrdonimizga aylanadi.



Mohir tarjimon, adabiyotshunos
olim, adib Ibrohim G'afurov
yaratgan va tarjima qilgan asarlar
ham bir umrlik hamrohimizga
aylangan desak, mubolag'a qilmagan
bo'lamiz.

Yaqinda adib bilan
ijodiy uchrashuv bo'lib
o'tdi. Ustoz salkam 50
yillik ijodiy va
mehnat faoliyati,
noshirlik ishi,
uning
mashaqqati
haqida
so'zladilar,

aytgan ibratli fikrlari, hayotiy misollar yig'ilganlarda katta
taassurot qoldirdi. Uchrashuvda «O'zbekiston», «O'qituvchi»,
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylari,
«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti,
gazeta va jurnal tahririyatlari xodimlari ishtirok etishdi.

Bilimimizni, mahoratimizni oshiradigan, ijodkorga, ayniqsa, biz
yosh jurnalistlarga ma'naviy ozuqa beradigan bunday ijodiy
uchrashuvlarni tez-tez o'tkazib turishga kelishib oldik.

Davronbek ORIPOV



Anvar ota-onasi bilan shaharda yashaydi.
U ta'tilda qishloqqa, bobosinikiga mehmonga
bordi. Bobosi cho'pon bo'lgani uchun qir-u
adirlarga chiqib ketgan ekan. Anvar bobosini
ko'rish uchun qirga yo'l oldi. Bobo nabirasini
ko'rib, juda xursand bo'ldi va uni bag'riga bosib
ko'rishdi.

– Katta bo'lib ketibsan-ku, toy bola. Ota-
onang yaxshi yurishibdimi? Maktabda
o'qishlaring qalay ketyapti?

– Bobojon, hali tuzukroq ko'rishishga ham
ulgurmasdan savollarga ko'mib tashladingiz-ku!

– Obbo, bolasi tushmagur-ey, ancha
ulg'ayib qolibsan-a...

Ular tushlik qilish uchun daraxt soyasiga
o'tirishdi. Ergash bobo dasturxonga non, qo'y
sutidan ivitilgan qatiq, yaxna go'sht va choy
qo'ydi.

Anvar tevarak-atrofni kuzatar ekan, bahri
dili ochilib dedi:

– Bobo, qishlog'imiz manzarasini qarang,
poyonsiz qirlar, adirlar, keng dalalar, musaffo havo...

– Nimasini aytasan, bolam. Bunday bahavo
joy yana qayda bor? Shunday go'zal qishloqda
tug'ilib, o'sib-ulg'ayganimdan faxrlanaman, –
dedi g'urur bilan Ergash bobo.

– Bobojon, kelajakda men ham cho'pon
bo'lmoqchiman. Qo'y-qo'zilarni siz kabi mehr
bilan boqib, odamlardan rahmat eshitib
yuraman.

– Cho'ponlik oson ish emas. Bu kasbning
ancha mas'uliyatli tomonlari bor. Boz ustiga
cho'ponlik qilish uchun ham ma'lumot kerak.

– Albatta, bobojon. Men o'qishdan,
mehnatdan qochmayman. O'qishimni
tugatgach, oldingizga qaytaman, kasbingizning
sir-asrorlarini o'rgatasiz.

Nabirasining chin dildan aytgan gaplari
boboni to'liqlantirib yubordi. Uni mehr bilan
bag'riga bosdi.

Dildora QARSHIBOYEVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi
16-umumta'lim maktabining
7-sinf o'quvchisi

GILAMDA YOSH POLVONLAR

Diyorimiz azal-azaldan polvonlar yurti bo'lib kelgan.

O'zbekning hech bir to'y-u tomoshasi, bayram tadbirlari kurash musobaqalarisiz o'tmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugun ham yurtimiz yoshlari milliy kurash, belbog'li kurash, o'zbek jang san'ati kabi milliy sport turlarimiz qatori, dzyudo, karate, taekvando, aykido singari Sharq yakkakurashi turlariga mehr qo'yib, respublika va xalqaro musobaqalarda ko'plab medallarni qo'lga kiritib kelishayotir. Ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda dzyudo sport turi bilan shug'ullanayotgan yoshlar safi tobora kengayib borayotgani quvonarlidir.

Kuni kecha Toshkent viloyati, Chirchiq shahrida o'tkazilgan dzyudo bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi xalqaro turnirda ham ana shunday ko'plab yosh dzyudochilarimiz g'oliblik uchun gilamda bel olishdilar. Musobaqada O'zbekistondan tashqari Rossiya, Qozog'iston va Tojikistondan jami 400 nafarga yaqin yosh polvonlar ishtirok etdi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, keyingi yillarda mamlakatimizning barcha hududlarida

ko'plab zamonaviy sport inshootlarining qurilib foydalanishga topshirilayotgani, yoshlarimizning sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun keng imkoniyat yaratish bilan birga, qator nufuzli xalqaro sport musobaqalariga mezbonlik qilishimizga katta turtki bo'lmoqda. Bu esa yurtimizda farzandlar salomatligi yo'lida



amalg

o'shirayotgan xayrli ishlarimizning xalqaro miqyosdagi e'tirofi, deyish mumkin.

Musobaqaga to'xtalsak, xalqaro turnirning 60 kilogramm vazn toifasidagi bellashuvlari o'ta muvaffaqiyatli bo'ldi. Boisi, ushbu vazn toifasida oz emas, ko'p emas naqd 59 nafar yosh dzyudochi g'oliblik uchun gilamga chiqdi. Quvonarlisi, yosh polvonimiz

Javlonbek Hamidov finalda qozog'istonlik Baurjon Jauintoyevni mag'lubiyatga uchratib, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi.

Yoshligimdan dzyudo sport turiga qiziqishim baland. Kelajakda Rishod Sobirov singari mohir dzyudochi bo'lib, Vatanim sharafini xalqaro maydonlarda munosib himoya qilmoqchiman, - deydi Javlonbek Hamidov.

Shuningdek, Komron Nurullayev, Muhammadkarim Xurramov, Xurshid Qodirov, Davlat Bobonov, Behzod Abdurahimov, Sardor Karimov kabi yosh dzyudochilarimiz ham o'z vazn toifalarida oltin medal sohibiga aylanishdi.

Musobaqa doirasida o'tkazilgan jamoaviy bellashuvlarda Chirchiq olimpiya zaxiralari kolleji dzyudochilari birinchi o'rinni egalladi. Samarqandlik yoshlar ikkinchi, Andijon va Buxoro viloyatlari yosh polvonlari uchinchi o'ringa munosib ko'rildi.

Sa'dullo TURSINOV



TOSHKENTLIK CHAVANDOZLAR G'OLIB

Poytaxtimizdagi «Jokey» ot sporti klubida o'n olti yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida ot sportining konkur - otli to'siqlar osha sakratish musobaqasi bo'yicha Toshkent shahar ochiq birinчилиги o'tkazildi.

Mazkur musobaqada yigirmadan ziyod sportchi o'zaro bellashdi. Balandligi 110 santimetrlik to'siqlar bo'yicha bahslarda poytaxtlik Umarxon To'raonov birinchi o'rinni egalladi. Andijonlik Ismoil Rahmonov esa bittadan kumush va bronza medal bilan taqdirlandi.

Shoh MUHAMMAD

SOG'LOM BO'LAY DESANGIZ...

Poytaxtimizdagi «Paxtakor» futbol akademiyasi sportga ixlosmand yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishga xizmat qilayotgan sport maskanlaridan hisoblanadi.

Men ham mana ikki yildirki, «Paxtakor - 99»

jamoasi tarkibida muvaffaqiyatli to'p surib kelmoqdaman. Jamoamiz tarkibida ellikdan ortiq yosh futbolchi bo'lib, mashg'ulotlar haftasiga uch martadan olib boriladi. Bir hafta ichida o'rgangan ko'nikmalarimizni har yakshanba kuni turli jamoalar bilan o'rtoqlik uchrashuvlari orqali mustahkamlab boramiz.

Murrabiyimiz Yuriy Arslanov har bir yosh futbolchiga katta e'tibor qaratadi. Mashg'ulotlarni qiziqarli, o'ziga xos tarzda o'tadi.

Jamoamiz bilan

ko'plab musobaqalarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqdamiz. Jumladan, «Paxtakor - 99» jamoasi uch karra O'zbekiston, to'rt karra Toshkent chempionligini qo'lga kiritgan. Shuningdek, «Gennadiy Krasnitskiy», «Paxtakor - 79» turnirlari g'olibi ham bo'lganmiz. 2009-yilda Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tgan «Golden ball» turnirida ham

muvaffaqiyatli qatnashib, kumush medal sohibiga aylanganmiz. Hozirda Chexiyaning Karlovy Vari shahrida bo'lib o'tadigan musobaqaga jiddiy hozirlik ko'rmoqdamiz.

Agar Sizda ham futbol bilan shug'ullanish istagi tug'ilgan bo'lsa, maktabingizdagi futbol to'garagiga qatnashishni maslahat beraman. Shuni yodda tutingki, agar maktabda a'lo baholarga o'qimasangiz, murrabiyingiz sizni mashg'ulotlardan chetlashtiradi. Shunday ekan, maktabda a'lo baholarga o'qib, ustoz va murrabiylaringiz gapiga quloq tuting. Ana shunda kelajakda mohir futbolchi bo'lib yetishasiz.

Xurshid RAHMON



11 YOSHLI BILIMDON

Dunyodagi eng iqtidorli, qobiliyatli bolalardan biri meksikalik 11 yoshli Luis Robert Ramires o'zining bilimdonligi bilan hamshaharlarini qoyil qoldirmoqda. Robert atigi 10 hafta ichida kollejning birinchi bosqichini tugatgan. 47 ta fanning barchasidan 10 ballga, faqatgina bittasidan 9 ballga ega bo'ldi. Ustozlari bilimdon bolakayni maxsus tekshiruvdan o'tkazishganda, uning zakovat darajasi Albert Eynshteyn bilan tengligini aniqlashdi. Endi Luisning ota-onasi uning mashhur Garvard universitetida tahsil olishi uchun Amerikaga borishiga pul to'plashmoqchi.

Ajabo!

XANDA

- Voy, bolam-ey, ertalabdan kechgacha uydan tashqariga chiqmay o'tirishingni qara.
- Nega unday deysiz, oyijon, axir internetda dunyoga chiqyapman-ku!



MANZURA tayyorladi

BILASIZMI?

Yer yuzida 200 million yildan buyon yashab kelayotgan, hatto, muzlik davridan eson-omon o'tgan toshbaqalar bugungi kunda yo'qolib ketish arafasida. Bunga ulardan turli taomlar va dorilar tayyorlanishi sabab bo'lmoqda.



Flamingo qushi 80 yilgacha yashashi mumkin.

Bugalamunning tili tanasidan ikki baravar uzun bo'lar ekan.

Dengiz yulduzini bo'laklarga bo'lib tashlasangiz, uning har bir qismi vaqt o'tib yana yulduzga aylanar ekan.

Emu tuyaqushi Avstraliyada yashovchi eng yirik qushdir. Uning bo'yi 2 metrga yetadi. Ucha olmaydi, yugurganda esa tezligini soatiga 65 kmgacha yetkaza oladi.



Timsohning tili tanglayidan o'sib chiqarkan.

Internet materiallari asosida Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi

BAYROG'IMIZ — FAXRIMIZ

mudammonoma

Shakldagi raqamlarda mustaqil vatanimiz bayrog'iga berilgan ta'rif yashiringan. Uni avval quyidagi kalit so'zlarni topib, raqamlarni javoblardagi harflar bilan almashtirish asosida bilib oling.

1. Davlat ramzlaridan biri — 11, 5, 1, 10.
2. Muchal hisobi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining bayrog'i qabul qilingan yil — 23, 20, 22.
3. Davlatimiz bayrog'ida viloyatlarni aks ettiruvchi samo jismi — 22, 8, 14, 16, 8, 12.
4. O'zbekiston tarkibidagi Respublika poytaxti — 3, 8, 6, 8, 7.
5. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan bolalar tashkiloti — 6, 4, 17, 4, 14, 4, 6.
6. Davlatimiz gerbida aks etgan, ko'plab yetishtirilib, xirmon uyiladigan ekin — 21, 4, 19, 13, 4.
7. Shaharlar va tumanlarni o'z ichiga olgan ma'muriy-hududiy bo'linma — 15, 2, 14, 9, 22, 4, 13.
8. Gullab-yashnagan vodiy — 24, 4, 1, 18, 9, 3, 4.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

→	20	12	10	5	6	2	7	13	9	3	-	7	8	15
4	22	1	9	18	2	*	9	3	4	*	19	4	14	5
10	.												23	1
*	1												2	5
11	2												17	3
3	16												2	*
2	2												12	16
3	1												3	5
2	19												2	17
7	4												3	9
4	24	*	4	15	*	2	1	8	1	8	18	*	13	6
6	2	14	10	8	21	7	5	1	*	6	2	13	4	1

8

18-noyabr 2013



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Inkomatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Sobitxon TURGUNOV

Naybatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruz
MATYOQUBOV
Dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Musahhih
Dilorom
MUHAMMADJON qizi

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi — 46870
Buyurtma N: J 8530